

DISBAKTERIOZ, KELIB CHIQISH SABABLARI, PROFILAKTIKASI VA DAVOSI.

Xudoyarova G.N

PhD

Malikov Ulug'bek

Qurbonnazarov Sayxun

Axtamov Qosim

(Davolash fakulteti talabalari) Samarqand Zarmed Universiteti

Mikroflora o'zgarishining jiddiyligiga qarab disbakterioz to'rt bosqichga bo'linadi, ularning har biri o'z belgi va alomatlariga ega. Keling, ularni jadval shaklida aniqlik bilan ko'rib chiqamiz:

Disbakterioz bosqichi	Alomatlari	Bartaraf qilish usullari va ehtimolli asoratlari
Birinchi bosqich	Alomatlar deyarli sezilmaydi. Ehtimol qorin «qurullashi» namoyon bo'lishi mumkin.	Birinchi bosqich disbakteriozi oziq-ovqat yoki suv turining o'zgarishi tufayli rivojlanadi. Sababchi omil mikrofloraning mustaqil tiklanishi bilan bartaraf bo'ladi.
Ikkinchi bosqich	Ich qotishi yoki ich ketishi kuzatiladi, ishtahaning pasayishi, og'izda yoqimsiz ta'm sezilishi, ehtimol, ko'ngil aynishi va qayt qilish kuzatiladi.	Bunday alomatlar ichak mikroflorasining sezilari o'zgarishlarida kuzatiladi, bu holat antibiotiklarni qabul qilish yoki oziq-ovqatdan zaharlanish tufayli rivojlanadi.
Uchinchi bosqich	Ichakda og'riqlar paydo bo'ladi, axlat bilan hazm bo'lmagan ovqat qismlari chiqishi kuzatiladi, ikkinchi bosqichda aytib o'tilgan alomatlarning kuchayishi qayd qilinadi.	Ushbu bosqichdagi disbakterioz ichak devorlarining yallig'lanishi, ovqat hazm qilish jarayonining buzilishiga olib keladi. Jiddiy asoratlarni oldini olish uchun doridarmonlar bilan davolanadi.
To'rtinchi bosqich	Oldingi bosqichlardagi alomatlar, uyqusizlik, tushkunlik kuzatiladi.	Ichak mikroflorasining deyarli butunlay o'zgarishida anemiya va avitaminoz rivojlanadi. Malakali davolashsiz to'rtinchi bosqich disbakterioz jiddiy infeksiyon kasalliklarga olib kelishi mumkin.

Bundan tashqari, ichak disbakteriozining yana bir tasnifi mavjud bo'lib, bu mikroflora buzilgan holatda axlatni laboratoriya tekshiruvi ko'rsatkichlariga asoslanadi. Kattalar uchun u ikki guruhga bo'linadi. Aniqlik uchun biz uni jadval shaklida taqdim etamiz:

Yosh	Disbakterioz darajasi	Laboratoriya ko'rsatkichlari
50 yoshgacha	1 bosqich	10^5 - 10^6 tagacha kamaygan yoki 10^9 - 10^{10} tagacha ko'paygan tipik



		ichak tayoqchalari, 10^5 - 10^6 gacha kamaygan laktobakteriyalar ko'rsatkichi va 10^6 - 10^7 gacha kamaygan bifidobakteriyalar ko'rsatkichi.
	2 bosqich	Shartli-patogen mikroorganizmlar ko'rsatkichining 10^5 - 10^7 gacha ko'tarilishi, bifidobakteriyalar ko'rsatkichining 10^7 va laktobakteriyalarning 10^5 gacha kamayishi.
	3 bosqich	Shartli-patogen mikroorganizmlarning ko'rsatkichi 10^7 dan yuqori bo'ladi, laktobakteriyalar ko'rsatkichi 10^5 gacha, bifidobakteriyalarniki esa 10^7 gacha pasayadi.
50 yoshdan keyin	1 bosqich	Tipik ichak tayoqchalarinig ko'rsatkichi 10^5 - 10^{10} dan yuqori, laktobakteriyalar ko'rsatkichi 10^4 10^5 gacha, bifidobakteriyalarniki esa 10^6 - 10^7 gacha pasaygan.
	2 bosqich	Shartli-patogen mikroorganizmlar ko'rsatkichi 10^5 - 10^7 gacha ko'tarilgan, laktobakteriyalar ko'rsatkichi 10^4 gacha, bifidobakteriyalarniki 10^6 gacha pasaygan.
	3 bosqich	Shartli patogen mikroorganizmlar ko'rsatkichi 10^6 - 10^7 dan oshib ketgan, laktobakteriyalar ko'rsatkichi 10^4 , bifidobakteriyalar ko'rsatkichi 10^6 dan past.

Disbakteriozni davolashda shuningdek prebiotik va probiotik preparatlar qo'llaniladi, va aytishlariga qaraganda, ular ichak mikroflorasi buzilgan hollarda samarali yordam bermoqda. Nomlanishi o'xshashligiga qaramasdan, prebiotiklar va probiotiklar tubdan farq qiluvchi preparatlar bo'lib, ularning ta'rifini batafsilroq tushunish maqsadga muvofiqdir.

Prebiotiklar- bu mavjud bo'lgan foydali mikrofloraning o'sishi va faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan moddalardir. Prebiotiklar oshqozon-ichak tizimida hazm qilinmaydi, oddiy qilib aytadigan bo'lsak, prebiotiklar bu foydali mikroflora uchun oziq-ovqat hisoblanadi. Prebiotiklarning farmakologik shakllari orasida ko'pincha Laktuloza, Laktitol, Hilak Forte buyuriladi. Bu dorilarning asosiy nomlari bo'lib, ularning o'nlab savdo nomlari mavjud. Bundan tashqari, prebiotik bo'lgan tabiiy mahsulotlar ham mavjud. Ular orasida sut mahsulotlari, piyoz va sarimsoq, donlar mavjud.

Probiotiklar. Ushbu preparatlar organizmga kerak bo'lgan mikroorganizmlar majmui bo'lib, ichakka yetarli miqdorda tushganda mikrofloraga ijobiy ta'sir qiladi. Shu bilan birga, ularni qo'llash juda bahsli masala. Holbuki, probiotiklar shaklida mikroorganizmlarning bevosita kiritilishi ko'plab shartlarga ega. Ba'zi mikroorganizmlar shunchalik miqdorda kerakki, ularni tashqaridan olish oson emas, boshqalarini esa jonli shaklda kiritish juda murakkabdir. Probiotiklarni qo'llashning haqiqiy foydalari haqida laboratoriya dalillari juda ko'p emas. Foydali ta'siri tasdiqlangan probiotiklardan dorixonada Laktobakteriyalar va Bifidobakteriyalar (Lineks, Bifiform, Bifidumbakterin, Laktobakterin), saxaromitset Bulari, enterokokklarni topish mumkin.

Og'ir shakllarda ichak disbakteriozi yanada murakkab farmakologik preparatlar bilan davolanadi va ular uchta shartli guruhga bo'linadi.





Ulardan birinchisi antibakterial preparatlardir. Ular muayyan turdagi mikroorganizmlarga ta'sir ko'rsatadi va o'sishini va tarqalishini to'xtatadi. Antibakterial preparatlar (ichak antiseptiklari) mikrofloraning buzilishiga olib kelgan mikroorganizmlar turiga qarab buyuriladi.

Shartli-patogen mikroorganizm	Qo'llaniladigan antibakterial preparat
Enterokokk	Ersefuril, Furazolidon, Enterofuril, Levomitsitin, makrolidlar.
Protey	Nevigramon, Sulgin, Ersefuril, Enterofruil.
Stafilokokk	Piobakteriofag, stafilokokk Bakteriofag.
Kandidalar va boshqa zamburug'li agentlar	Flukonazol, Mikosist, Terbinafrin, Ambizom.
Klostridiyalar	Metronidazol, Vankomitsin.
Pseudomonas aeruginosa	Kanamitsin, Gentamitsin.

Antibakterial vositalar kabi bakteriofaglar ham bir xil ta'sir qiladi. Ularning tarkibida ma'lum bir mikroorganizmlarni nobud qilish uchun maxsus viruslar mavjud. Antibakterial dorilar kabi, bakteriofaglar bakteriyalar turiga qarab guruhlariga bo'linadi: pseudomonas, stafilokokk va boshqalarga qarshi.

Immunomodulyatorlar- organizmning himoya xususiyatlarini yaxshilaydigan preparatlar bo'lib, ichak mikroflorasi buzilganda bunday preparatlarni qabul qilish tiklanish jarayonini tezlashtiradi. Immunomodulyatorlardan foydalanish faqat shifokor tavsiyasi bo'yicha amalga oshirilishi kerak, afzallikni esa o'simlik asosida tayyorlangan vositalarga berish kerak.


Antigistamin preparatlar. Ichak disbakteriozi fonida rivojlanishi mumkin bo'lgan allergik reaksiyalar paydo bo'lishining oldini olish uchun ishlatiladi.

Spazmolitiklar. Ko'pincha ich ketishi bilan birga kechayotgan disbakteriozda buyuriladi. Eng mashhur spazmolitik preparat bu No-shpa hisoblanadi, faqat ich ketishini to'xtatish uchun esa Loperamid tavsiya etiladi. Ichak mikroflorasining buzilishi ich qotish bilan birga kuzatilsa, u holda vaziyatni to'g'irlash uchun maxsus shamchalar qo'llaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Г.Н. Худоярова, М.Шаропова, Ш.Метина. ПРОВЕДЕННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЕ НА КАФЕДРЕ ХИРУРГИИ У БОЛЬНЫХ С ЭХИНОКОККОЗОМ ПЕЧЕНИ ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ 30 (1), 129-130





2. Г.Н. Худоярова, Г.Маликова, М.Нематуллаева СТАФИЛОКОККОВЫЕ ИНФЕКЦИИ У ДЕТЕЙ РАННЕГО ВОЗРАСТА ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ 30 (1), 134-136

3. Г.Н. Худоярова, Д. Мирганиев, Ш. Эсанов. ПАТОГЕННЫЕ БАКТЕРИЙ РАСТЕНИЯ И РЕЗЕРВУАРЫ ДЛЯ КИШЕЧНЫХ ЗАБОЛЕВАНИЯХ
ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ 30 (1), 131-133

4. Х.Г. Нурмаматовна. ЗАБОЛЕВАЕМОСТЬ ОСТРОЙ ПНЕВМОНИЕЙ У ДЕТЕЙ РАННЕГО ВОЗРАСТА В САМАРКАНДСКОМ ОБЛАСТИ
"Экономика и социум" 112 (9), 6

5. Худоярова Г.Н. ОСТРЫЕ ОТРАВЛЕНИЯ ЛЕКАРСТВЕННЫМИ СРЕДСТВАМИ.
ИНА Ta'lim Innovatsiyasi Va Integratsiyasi 1 (3), 148-153

6. Вахидова А.М., Худоярова Г.Н. ИССЛЕДОВАНИЕ ПРИ СЕЛЬСКОМ БОЛЬНИЦЕ С ДИАГНОЗОМ КАНДИДОЗ. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi 1 (3-son), 140-147

